MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QO‘LDOSHEV QOBILJON QO‘LDOSHEVICH

VAZNLI m-SUBGARMONIK O‘LCHOVLAR

01.01.01 – Matematik analiz

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

УДК: 517.57

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Physical and Mathematical Sciences

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QO‘LDOSHEV QOBILJON QO‘LDOSHEVICH

VAZNLI m-SUBGARMONIK O‘LCHOVLAR

01.01.01 – Matematik analiz

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.3.PhD/FM1345 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'iga (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Raximov Karim Xoshimovich** Fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Raximov Abdug'afur Abdumadjidovich** Fizika-matematika fanlari doktori, professor **Sharipov Rasulbek Axmedovich** Fizika-matematika fanlari bo'yicha PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli ilmiy Kengashning 2026-yil "8" yanvar soat 11^00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: +998-71-227-12-24, faks: +998-71-246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz)

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (251-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: +998-71-246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" dekabr dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi)

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI * O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI * MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI

O.S. Zikirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

R.M.Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
f.-m.f.f.d (PhD)

R.N.Ganixodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida pluripotensiallar nazariyasi matematikaning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Haqiqatdan ham, zamonaviy matematikada, jumladan, ko‘p o‘zgaruvchili kompleks dinamik sistemalar yo‘nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar aksariyat hollarda pluripotensiallar nazariyasi masalalariga keltiriladi. Bu soha nafaqat sof matematika uchun, balki elektrostatika, kvant mexanikasi, gidrodinamika va boshqa ko‘plab amaliy fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Potensiallar va pluripotensiallar nazariyalarining tadqiqot ob’yektlaridan hisoblanadigan Laplas, Monje-Amper operatorlari va mos ravishda ushbu operatorlar orqali tahlil qilinadigan subgarmonik, plurisubgarmonik funksiyalar, shuningdek, ular bilan bog‘liq o‘lchov va sig‘im tushunchalari chuqur o‘rganilmoqda va bu tushunchalar zamonaviy matematikaning aktual masalalaridan biri hisoblanadi.

Jahonda, so‘ngi yillarda, Laplas va Monje-Amper operatorlarining umumlashtirilgan holi kompleks Gessian operatori va uning yordamida aniqlanadigan m-subgarmonik funksiyalar hamda m-subgarmonik funksiyalar sinfida aniqlanadigan $\mathcal{P}_m$-o‘lchov va m-sig‘im tushunchalari pluripotensiallar nazariyasining asosiy va zamonaviy obyektlariga aylandi va bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. m-subgarmonik funksiyalar nazariyasida vaznli m-subgarmonik o‘lchovlarni va ular bilan bog‘liq sig‘imlarning xossalari hamda ular yordamida kompaktlarning regulyarlik xossalari, xususan, kompaktning Gyolder regulyarligini va chegaradagi holatini o‘rganish matematik fizika masalalarida, ko‘p kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasida hamda kompleks dinamik sistemalar yo‘nalishlarida dolzarb masalalardan hisoblanadi. Haqiqatan ham, kompleks Gessian operatoriga $K \subset \mathbb{C}^n$ kompaktning biror $D \supset K$ sohaga nisbatan vaznli m-subgarmonik o‘lchovni ta’sir ettirsak, havzasi kompaktda joylashgan o‘lchovga ega bo‘lamiz. Bunday o‘lchovlar esa kompleks dinamik sistemalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi qaralayotgan masalaning naqadar dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda, ayniqsa, oxirgi yillarda fundamental fanlarni, xususan kompleks analiz va potensiallar nazariyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Akademik A. Sadullaev maktabi tomonidan boshlangan m-subgarmonik funksiyalar nazariyasiga oid tadqiqotlar hozirda xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. “Haqiqiy o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, Kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish matematika fanining faoliyat yo‘nalishlari hamda muhim vazifalari sifatida belgilab berilgan[1]. Shu nuqtayi nazardan, vaznli m-subgarmonik o‘lchovlar va sig‘imlarning asosiy xossalarini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

o‘rganish, shuningdek, ularning yangi qo‘llanilish sohalarini aniqlash nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789 sonli va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708 sonli Qarorlarida, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan masalalarni hal etishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Potensialar nazariyasining asosiy obyekti subgarmonik funksiyalar bo‘lgani kabi, pluripotensiallar nazariyasining ham asosiy obyektlaridan biri plurisubgarmonik funksiyalardir. Bu sinfda kiritilgan plurisubgarmonik o‘lchov ($\mathcal{P}$-o‘lchov) kompleks Green funksiyasiga o‘xshash bir qancha muhim xossalarga ega bo‘lib, undan chegaraviy masalalarni yechishda keng foydalaniladi. Bundan tashqari, $\mathcal{P}$-o‘lchov kompakt to‘plamning regulyarlik va lokal regulyarlik xossalarini o‘rganishda qo‘llanilib, regulyar kompaktlardan plurisubgarmonik funksiyalar sinfida kiritiladigan sig‘imlarning tadqiq qilishda samarali foydalanilgan. Ushbu tadqiqot natijalarini Bedford-Teylor, Sadullayev va boshqa taniqli olimlarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

XXI asr boshlarida pluripotensiallar nazariyasi asosida yangi yo‘nalish – m-subgarmonik funksiyalar (sh_m) sinfida potensiallar nazariyasi shakllandi. Bu sinf subgarmonik va plurisubgarmonik funksiyalar orasida oraliq o‘rinni egallab, ularning tabiiy umumlashmasi hisoblanadi. Haqiqatan ham, $m=1$ holida subgarmonik, $m=n$ holida esa plurisubgarmonik funksiyalar sinfi hosil bo‘ladi.

m-subgarmonik funksiyalar tushunchasini birinchi marta fanga Z. Blocki kiritgan bo‘lib, u bu sinfning asosiy xossalarini isbotladi. Keyinchalik, A. Sadullaev va B. Abdullaev tomonidan sh_m funksiyalar sinfida potensiallar nazariyasi chuqur o‘rganildi. Shuningdek, m-subgarmonik o‘lchov tushunchasi kiritilib, ularning asosiy xossalari tadqiq qilindi hamda m-subgarmonik o‘lchov yordamida m-subgarmonik funksiyalar sinfida turli xil sig‘im tushunchalari kiritildi va ularning ham qator xossalari isbotlandi. Mazkur sinf ko‘p o‘zgaruvchili haqiqiy analiz va differensial geometriyada keng qo‘llanilmoqda. Xususan, m-subgarmonik funksiyalar va m-subgarmonik o‘lchov yordamida ko‘p haqiqiy o‘zgariluvchili m-qavariq funksiyalar sinfi o‘rganilib, bu sinfda Dirixle masalasi yechilgan.

Z. Blocki, S. Kolodziej, S. Dinev, X. Ch. Lu, A. Sadullayev va B. Abdullaevlarning ishlari m-subgarmonik funksiyalar nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, bugungi kunda ham Fransiya, Polsha, Xitoy, O‘zbekiston olimlari va boshqa ko‘plab taniqli olimlar tomonidan m -subgarmonik funksiyalar sinfida faol tadqiqotlar olib borilmoqda.

Plurisubgarmonik funksiyalar sinfida vaznli kompleks Green funksiyasi bilan J. Sichak, V. Zaharyuta, A. Sadullayev kabi yetuk olimlar shug‘ullanishgan va muhim natijalar olishgan. Biroq, plurisubgamonik funksiyalar sinfida vaznli $\mathcal{P}$ -o‘lchov o‘rganilmagan. Hattoki, Gyolder uzluksizlik masalasi vaznsiz holatda ham nafaqat $\mathcal{P}$ -o‘lchov uchun balki, subgarmonik funksiyalar sinfida kiritiladigan garmonik o‘lchov uchun ham shu vaqtgacha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasisining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ilmiy-tadqiqot granti IL-5421101746 raqamli rejalashtirilgan mavzuga muvofiq ravishda, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi vaznli m-subgarmonik o‘lchovlarning xossalarini o‘rganish va ular yordamida kompakt to‘plamlarning regulyarligini hamda vaznli sig‘imlarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

vaznli m-subgarmonik o‘lchovga ta’rif berish va uning xossalarini o‘rganish;

vaznli m-subgarmonik o‘lchov yordamida kompakt to‘plamning lokal (m,ψ) -regulyarligi va (m,ψ)-regulyarligini o‘rganish;

m -subgarmonik o‘lchovning vaznli hamda vaznsiz hollar uchun Gyolder uzluksizligini tadqiq etish;

$\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig‘im tushunchasini kiritish va uni klassik $\mathcal{P}_m$-sig‘im bilan solishtirib, asosiy xossalarini aniqlash;

(m,ψ)-sig‘im tushunchasini kiritish va uning asosiy xususiyatlarini o‘rganish;

$\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig‘im bilan (m,ψ)-tashqi sig‘im orasidagi bog‘lanishni tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti m-subgarmonik funksiyalar, m-subgarmonik o‘lchov, vaznli m -subgarmonik o‘lchov, vaznli m -Green funksiyasi hamda pluripotensiallar nazariyasidagi vaznli sig‘imlardan iborat.

Tadqiqot predmeti. Kompakt to‘plamlarning regulyarligini va vaznli (m,ψ) -subgarmonik o‘lchovlarning potensial xossalarini o‘rganish hamda (m,ψ) -sig‘imlar va ularning asosiy xossalarini vaznli (m,ψ)-subgarmonik o‘lchovlar yordamida tahlil qilish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda zamonaviy kompleks analiz, funksional analiz, umumiy topologiya, klassik potensiallar nazariyasi hamda pluripotensiallar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

m -subgarmonik funksiyalar sinfida $K \subset D$ kompaktning chegaralangan $D \subset \mathbb{C}^n$ sohaga nisbatan vaznli m-subgarmonik o‘lchovi tushunchasi kiritilib, uning potensial xossalari isbotlangan;

vaznli m-subgarmonik o‘lchov yordamida kompakt to‘plamlarning lokal

(m,ψ) -regulyarlik va (m,ψ) -regulyarlik xossalariga oid teoremalardan $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$ -sig‘im bilan (m,ψ)-tashqi sig‘im orasidagi bog‘lanishni ifodalovchi tengsizlik keltirib chiqarilgan;

vaznli m -Green funksiyasi va vaznli m -subgarmonik o‘lchov kompakt to‘plamga nisbatan Gyolder uzluksiz va vazn funksiyasi kompaktda Gyolder uzluksiz bo‘lishidan, ular butun sohada ham Gyolder uzluksiz bo‘lishi ko‘rsatilgan;

m -subgarmonik funksiyalar sinfida $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$ -sig‘im va (m,ψ) -sig‘im tushunchalari kiritilishi natijasida muhim natijalar olingan va ularning bir qancha fizik, dinamik xossalari isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari. Vaznli m-subgarmonik o‘lchov va uning xossalaridan chegaraviy masalalarni yechishda va kopleks dinamik sistemalarda ko‘phadsimon akslantirishlarning Julia to‘plamining regulyarlik xossalarini o‘rganishda foydalanishdan iborat. Shuningdek, ushbu dissertatsiyada keltirilgan natijalar va metodologiyalar oliy ta’lim muassasalarida magistratura va doktorantura talabalariga mo‘ljallangan maxsus kurslarga tatbiq etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik fizika, klassik potensiallar nazariyasi va ko‘p kompleks o‘zgaruvchilar funksiyalari nazariyalaridagi mashhur usullardan foydalangan holda qat’iy matematik teoremlarning isboti bilan berilgani orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, vaznli (m,ψ) -subgarmonik o‘lchovlar kiritilib o‘rganildi. Ular yordamida vaznli (m,ψ)-sig‘im hamda $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig‘im tushunchalari ta’riflanib, ularning xossalari tahlil qilindi. Bundan tashqari, vaznli m -Green funksiyalar va vaznli m-subgarmonik o‘lchovlarning Gyolder uzluksizligi haqidagi teorema isbotlandi. Ushbu natijalar pluripotensiallar nazariyasining klassik tushunchalarini kengaytiradi va kompakt to‘plamlarning regulyarlik xususiyatlariga yangi yondashuvni beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular kompakt to‘plamlarning regulyarlik xususiyatini va sig‘im tushunchasini chuqurroq anglashga yordam beradi hamda ko‘p kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi va kompleks dinamik sistemalarda turli xil masalalarni yechishda qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu natijalardan texnik, fizik va biologik jarayonlarni matematik modellashtirishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Vaznli m-subgarmonik o‘lchovlarni tadqiq qilish asosida olingan ilmiy natijalar quyidagi ilmiy loyihalarda qo‘llanilgan;

E to‘plamning D sohaga nisbatan (m,ψ)-subgarmonik o‘lchovi va (m,ψ) -sig‘imning xossalaridan Xorazm Ma’mun akademiyasida bajarilgan FA-F-4-002 shifrli “ m -subgarmonik funksiyalar va ularning kalibrlangan geometriyaga tadbiqlari” fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘limi — Xorazm Ma’mun akademiyasining 2025-yil 7-oktyabrdagi 247/2-25-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalarni qo‘llash vaznli m -potensiallar nazariyasini qurish va uni rivojlantirish imkoniyatini bergan;

tadqiqot ishidagi vaznli m-subgarmonik o‘lchovlarning potensial xossalarini o‘rganilishi va kompakt to‘plamlarning (m,ψ)-regularlik xossalari haqida olingan ilmiy xulosalardan Urganch davlat universitetida 2020-2022 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining 610170-EPP-1-2019-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP “O‘rta Osiyoda katta ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha o‘quv-tadqiqot markazalari va kurslarni yaratish” loyihasida foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 2025-yil 11-noyabrdagi 06-201/4-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot davomida olingan natijalar E to‘plamning vaznli m-sig‘imini tahlil qilish va baholash imkonini bergan. Ushbu dissertatsiyada keltirilgan natijalar va metodologiyalar oliy ta’lim muassasalarida magistratura va doktorantura talabalariga mo‘ljallangan maxsus kurslarga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika miqiyosida tashkil etilgan ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, ulardan 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan PhD dissertatsiyasini himoya qilish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan, 3 tasi xalqaro va 5 tasi milliy matematik jurnallarda chop etilgan. Ulardan 3 tasi SCOPUS axborot bazasiga kiritilgan va 12 ta tezis mavjud.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, o‘n bir paragrafni o‘z ichiga oluvchi uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 75 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan va tahlil qilingan. Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab berilgan. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati tasvirlangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Dastlabki tushunchalar” deb nomlanib, unda asosan keyingi boblarda ishlatiladigan asosiy va muhim tushunchalarning sharhi keltiriladi. Xususan, quyidagi tushunchalar ta’rifi keltirib o‘tilgan: differensial formalar, musbat oqimlar, subgarmonik funksiyalar, plurisubgarmonik funksiyalar, m-subgarmonik funksiyalar, m-polyar to‘plam, m-subgarmonik o‘lchov, $\mathcal{P}_m$-sig‘im, m-sig‘im. Shuningdek, ushbu bobda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilgari isbotlangan va keyingi boblarda foydalaniladigan asosiy teoremalarga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Dastlab, m-subgarmoniklik tushunchasi C^2 sinfda kiritiladi. Aytaylik,

$D \subset \mathbb{C}^n$ chegaralangan soha bo‘lsin.

Ta’rif 1.2.4. Haqiqiy qiymatli $u \in C^2(D)$ funksiya uchun D sohaning har bir nuqtasida quyidagi

$$(dd^c u)^k \wedge \beta^{n-k} \geq 0, \quad \forall k = 1,2,\ldots,n-m+1,$$

shartlar o‘rinli bo‘lsa, u funksiya D sohada m-*subgarmonik* deyiladi, bu yerda $d = \partial + \bar{\partial}, \quad d^c = \dfrac{\partial - \bar{\partial}}{4i}$ va $\beta = dd^c |z|^2$.

Ta’rif 1.2.4 yordamida m -subgarmoniklik tushunchasini lokal integrallanuvchi funksiyalar sinfida ham aniqlash mumkin.

Ta’rif 1.2.5. Haqiqiy qiymatli, lokal integrallanuvchi $u \in L^1_{\text{loc}}(D)$ funksiya D sohada yuqoridan kuchli yarim uzluksiz bo‘lib hamda $C^2(D)$ sinfdan olingan ixtiyoriy m-subgarmonik $v_1, v_2, \ldots, v_{n-m}$ funksiyalar uchun quyidagi oqim

$$dd^c u \wedge dd^c v_1 \wedge dd^c v_2 \wedge \ldots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1}$$

musbat aniqlangan bo‘lsa, ya’ni ixtiyoriy nomanfiy finit funksiya $\omega \in F^{0,0}(D)$ uchun

$$\int_D u \wedge dd^c v_1 \wedge dd^c v_2 \wedge \ldots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega \geq 0$$

tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda u funksiya D sohada m-*subgarmonik* deyiladi. Agar har bir $G \Subset D$ soha uchun shunday $\varepsilon > 0$ son topilib, $u(z) - \varepsilon |z|^2$ funksiya G sohada m -subgarmonik bo‘lsa, u holda u funksiya D sohada *qat’iy* m -*subgarmonik* deyiladi.

D sohadagi m -subgarmonik funksiyalar sinfi $sh_m(D)$ bilan belgilanadi. Shuningdek, $u \equiv -\infty$ funksiya ham m-subgarmonik funksiyalar sinfiga kiritiladi.

m -subgarmonik o‘lchov tushunchasi m -subgarmonik funksiyalar sinfida ekstremal funksiya sifatida aniqlanadi. Faraz qilaylik, D chegaralangan va m -regulyar soha bo‘lsin, ya’ni

$$\exists \rho \in sh_m(D) : \rho|_D < 0, \lim_{\substack{z \to \partial D \\ z \in D}} \rho(z) = 0.$$

D sohada ixtiyoriy $E \subset D$ fiksirlangan to‘plam berilgan bo‘lsin. Quyidagi

$$\omega_m(z, E, D) = \sup\{u(z) : u \in sh_m(D), \quad u|_E \leq -1, \quad u|_D < 0\}$$

funksiyani aniqlaylik.

Ta’rif 1.3.2. Ushbu

$$\omega_m^*(z, E, D) = \overline{\lim_{w \to z}} \omega_m(w, E, D)$$

funksiyaga E to‘plamning D sohaga nisbatan m-*subgarmonik o‘lchovi* ($\mathcal{P}_m -$ *o‘lchov*) deyiladi.

$D \subset \mathbb{C}^n$ sohada ixtiyoriy fiksirlangan K kompakt berilgan bo‘lsin.

Ta’rif 1.3.3. Agar $z^0 \in K$ nuqta uchun

$$\omega_m^*(z^0, K, D) = -1$$

tenglik bajarilsa, z^0 nuqtaga K kompaktning m-*regulyar* nuqtasi deyiladi. Agar $z^0 \in K$ va har qanday $B = B(z^0, r) \subset \mathbb{C}^n$ shar uchun

$$\omega_m^*(z^0, K \cap \bar{B}, D) = -1$$

tenglik bajarilsa, z^0 nuqtaga K kompaktning *lokal* m*-regulyar* nuqtasi deyiladi. Agar K kompaktning barcha nuqtalari m-regulyar (yoki lokal m-regulyar) bo‘lsa, K ni m*-regulyar* (yoki *lokal* m*-regulyar*) kompakt deyiladi.

Ikkinchi bobda vanli m-subgarmonik o‘lchov tushunchasi kiritilib, uning bir qancha potensial xossalari shuningdek, kompakt to‘plamning vazn funksiyasiga nisbatan regulyarligiga doir bir qancha teoremalar isbotlangan. Bundan tashqari, agar vaznli m-subgarmonik o‘lchov kompaktga nisbatan Gyolder uzluksiz bo‘lsa, u holda uning D sohada Gyolder uzluksiz bo‘lishini isbotladik. Xuddi shuningdek, agar vaznli m-Green funksiyasi kompaktga nisbatan Gyolder uzluksiz bo‘lsa, u holda uning hamma yerda Gyolder uzluksiz bo‘lishini ham isbotladik.

Aytaylik, $D \subset \mathbb{C}^n$ chegaralangan m-regulyar soha bo‘lib, $E \subset D$ ixtiyoriy to‘plam va E to‘plamda chegaralangan hamda manfiy $\psi(z)$ funksiya berilgan bo‘lsin. Yuqoridagi usul asosida quyidagi funksiyani aniqlaymiz:

$$\omega_m(z, E, D, \psi) = \sup\{u(z) : u \in sh_m(D), \quad u|_E \le \psi|_E, \quad u|_D < 0\}.$$

Ta’rif 2.1.1. Ushbu

$$\omega_m^*(z, E, D, \psi) = \overline{\lim_{w \to z}} \omega_m(w, E, D, \psi)$$

funksiyaga E to‘plamning D sohaga nisbatan ψ *vanli* m*-subgarmonik o‘lchovi* ($\mathcal{P}_{(m,\psi)}$*-o‘lchov*) deyiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, $\omega_m^*(z, E, D, -1)$ (ya’ni $\psi \equiv -1$) funksiya potensiallar nazariyasidagi m-subgarmonik o‘lchov bilan mos tushadi, ya’ni

$$\omega_m^*(z, E, D, -1) = \omega_m^*(z, E, D).$$

Tasdiq 2.1.4. *Har qanday* $E \subset D$ *to‘plam va barcha* $z \in D$ *nuqtalar uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli*

$$-\inf_{w \in E} \psi(w) \cdot \omega_m^*(z, E, D) \le \omega_m^*(z, E, D, \psi) \le -\sup_{w \in E} \psi(w) \cdot \omega_m^*(z, E, D).$$

Agar shunday $u \in sh_m(D)$ funksiya mavjud bo‘lib, u quyidagi

$$u \not\equiv -\infty, \quad u|_E = -\infty$$

shartlarni bajarsa, E to‘plam D sohada m*-polyar* deyiladi. Tasdiq 2.1.4 dan kelib chiqadiki, $\omega_m^*(z, E, D, \psi)$ funksiya yoki hech qayerda nolga teng emas, yoki aynan nolga teng. Ikkinchi holatning bajarilishi uchun E to‘plamning m-polyar bo‘lishi zarur va yetarli.

Teorema 2.1.7. *Quyidagi mulohazalar o‘rinli:*

a). Aytaylik, $E \subset\subset D_1$ *va* $D_j \subset D_{j+1}$ *bo‘lib,* $\bigcup_{j=1}^{\infty} D_j = D$*, bu yerda* $j \in \mathbb{N}$. *U holda*

$$\lim_{j \to \infty} \omega_m^*(z, E, D_j, \psi) = \omega_m^*(z, E, D, \psi).$$

b). Aytaylik, $E \subset D$ *ixtiyoriy to‘plam bo‘lsin. Agar* $\psi(z)$ *funksiya* E *ning biror atrofida quyidan yarim uzluksiz bo‘lsa, u holda monoton kamayuvchi* $U_j \supset E$ *ochiq to‘plamlar ketma-ketligi mavjud bo‘lib, quyidagi munosabat o‘rinli:*

$$\left(\lim_{j\to\infty}\omega_m^*(z,U_j,D,\psi)\right)^* = \omega_m^*(z,E,D,\psi).$$

c). Aytaylik, $U\subset D$ ochiq to'plam bo'lsin. Agar $U=\bigcup_{j=1}^{\infty}K_j$ bo'lib, K_j kompakt to'plamlar o'suvchi va $\psi(z)$ funksiya U to'plamda yuqoridan yarim uzluksiz bo'lsa, u holda

$$\omega_m^*(z,K_j,D,\psi)\downarrow\omega_m^*(z,U,D,\psi).$$

$D\subset\mathbb{C}^n$ sohada ixtiyoriy fiksirlangan K kompakt berilgan bo'lsin.

Ta'rif 2.2.2. Agar $z^0\in K$ nuqta uchun

$$\omega_m^*(z^0,K,D,\psi)=\psi(z^0)$$

tenglik bajarilsa, z^0 nuqtaga K kompaktning (m,ψ)-*regulyar* nuqtasi deyiladi. Agar $z^0\in K$ va har qanday $B=B(z^0,r)\subset\mathbb{C}^n$ shar uchun

$$\omega_m^*(z^0,K\cap\overline{B},D,\psi)=\psi(z^0)$$

tenglik bajarilsa, z^0 nuqtaga K kompaktning *lokal* (m,ψ)-*regulyar* nuqtasi deyiladi. Agar K kompaktning barcha nuqtalari (m,ψ)-regulyar (yoki lokal (m,ψ)-regulyar) bo'lsa, u holda K ni (m,ψ)-*regulyar* (yoki *lokal* (m,ψ)-*regulyar*) kompakt deyiladi.

Quyida regulyarlikka doir bir nechta muhim teoremalarni isbotlaymiz.

Teorema 2.2.3. *Agar $\psi\in C(K)$ va K kompakt (m,ψ)-regulyar bo'lsa, u holda $\omega_m(z,K,D,\psi)$ funksiya D sohada uzluksiz bo'ladi.*

Ma'lumki, vaznsiz holda ($\psi\equiv-1$) regulyarlik va lokal regulyarlik ekvivalent emas. Biroq, vaznli holatda quyidagi teoremaga egamiz.

Teorema 2.2.4. *Aytaylik, $\psi\in C(K)$ bo'lsin. U holda quyidagi mulohazalar o'rinli:*

1. Fiksirlangan $z^0\in K$ nuqta lokal (m,ψ)-regulyar bo'lishi uchun uning lokal m-regulyar bo'lishi zarur va yetarli, ya'ni $\omega_m^*(z^0,K\cap\overline{B},D)=-1$.

2. Agar ψ funksiya $\overline{D}$ yopiq sohaning biror atrofi D^+ da manfiy va qatiy m-subgarmonik funksiya sifatida davom etsa, u holda $z^0\in K$ nuqta lokal (m,ψ)-regulyar bo'lishi uchun uning (m,ψ)-regulyar bo'lishi zarur va yetarli.

Quyida ushbu dissertatsiyaning asosiy natijalaridan birini keltiramiz. Aytaylik, $D\subset\mathbb{C}^n$ kuchli m-regulyar soha bo'lsin, ya'ni shunday $\rho\in sh_m(D^+)\cap C^2(D^+)$ funksiya mavjudki

$$D=\{z\in D^+:\rho(z)<0\},$$

bu yerda D^+ — $\overline{D}$ yopiq sohaning biror atrofi. $K\subset D$ kompakt va $\psi:K\to\mathbb{R}$ esa K da Gyolder uzluksiz funksiya bo'lsin.

Teorema 2.3.1. *Faraz qilaylik, shunday $C>0$ va $0<\alpha\le 1$ sonlar mavjud bo'lib, har bir $z\in D$ nuqta uchun quyidagi tengsizlik bajarilsin:*

$$|\omega_m^*(z,K,D,\psi)-\psi(w)|\le C\cdot\left(\operatorname{dist}(z,K)\right)^{\alpha},$$

bu yerda $w \in K$ — z *nuqtaga eng yaqin nuqta, ya'ni* $|z-w| = \mathrm{dist}(z,K)$. *U holda* $\omega_m^*(z,K,D,\psi)$ *funksiya* D *sohada Gyolder uzluksiz bo'ladi.*

Teorema 2.3.1 shuni bildiradiki, $\omega_m^*(z,K,D,\psi)$ funksiyaning K kompakt to'plamga nisbatan Gyolder uzluksizligi uning butun D sohada ham Gyolder uzluksizligini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ψ funksiyaning Gyolder uzluksizligi muhim shart bo'lib, aks holda, $\omega_m^*(z,K,D,\psi)$ funksiyaning Gyolder uzluksizligini kafolatlab bo'lmaydi.

Teorema 2.3.1 dan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija 2.3.3. *Faraz qilaylik, shunday* $C > 0$ *va* $0 < \alpha \le 1$ *sonlar mavjud bo'lib, har bir* $z \in D$ *nuqta uchun quyidagi tengsizlik bajarilsin:*

$$1 + \omega_m(z,K,D) \le C \cdot \left(\mathrm{dist}(z,K)\right)^{\alpha},$$

bu yerda $w \in K$ — z *nuqtaga eng yaqin nuqta, ya'ni* $|z-w| = \mathrm{dist}(z,K)$. *U holda* $\omega_m(z,K,D)$ *funksiya* D *sohada Gyolder uzluksiz bo'ladi.*

Uchinchi bobda vaznli (m,ψ)-subgarmonik o'lchovning maksimal ekanligi isbotlanadi. Shuningdek, vaznli (m,ψ)-subgarmonik o'lchov yordamida vaznli $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig'im $\mathcal{P}_m(E,D,\psi)$ tushunchasi kiritiladi va uning xossalari o'rganiladi. Bundan tashqari, vaznli (m,ψ)-sig'im tushunchasi kiritilib, uni vaznli (m,ψ)-subgarmonik o'lchov bilan bog'lab o'rganamiz hamda vaznli $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig'im va vaznli (m,ψ)-sig'im orasidagi bog'lanishni ifodalovchi muhim tengsizlikni isbotlaymiz.

Aytaylik, $D \subset \mathbb{C}^n$ chegaralangan soha va $E \subset D$ undagi biror to'plam bo'lib, E to'plamda manfiy va chegaralangan $\psi(z)$ funksiya berilgan bo'lsin. $\omega^*(z,E,D,\psi)$ funksiyani yuqoridagi kabi aniqlaylik.

Ta'rif 3.1.1. Ushbu

$$\mathcal{P}_m(E,D,\psi) = -\int_D \omega_m^*(z,E,D,\psi)\,dV$$

miqdorga E to'plamning D sohaga nisbatan *vaznli* $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$*-sig'imi* deb ataladi, bu yerda dV — $\mathbb{C}^n$ fazodagi Lebeg hajm o'lchovidir.

Vaznli $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig'im ko'p xossalarga ega bo'lib, biz ulardan eng muhimlarini teorema sifatida keltiramiz.

Teorema 3.1.3. *Quyidagi mulohazalar o'rinli:*

1. $\{K_j\}$ — *kamayuvchi kompakt to'plamlar ketma-ketligi bo'lib,* $K = \bigcap K_j$ *va* $\psi(z)$ *funksiya* K *kompaktning biror atrofida quyidan yarim uzluksiz bo'lsa, u holda*

$$\mathcal{P}_m(K,D,\psi) = \lim_{j\to\infty} \mathcal{P}_m(K_j,D,\psi);$$

2. $\{E_j\}$ — *o'suvchi to'plamlar ketma-ketligi bo'lib,* $E = \bigcup E_j$ *bo'lsa, u holda*

$$\mathcal{P}_m(E,D,\psi) = \lim_{j\to\infty} \mathcal{P}_m(E_j,D,\psi);$$

3. $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$*-sig'im sanoqli subaditiv, ya'ni agar ixtiyoriy* $j \in \mathbb{N}$ *uchun* $E_j \subset D$

bo'lsa, u holda

$$\mathcal{P}_m\left(\bigcup_{j=1}^{\infty}E_j,D,\psi\right)\le\sum_{j=1}^{\infty}\mathcal{P}_m(E_j,D,\psi).$$

Maksimal funksiyalar potensiallar nazariyasining muhim tushunchalaridan biri bo'lib, m-subgarmonik funksiyalar sinfida ham muhim o'rin tutadi.

Ta'rif 3.2.1. $D\subset\mathbb{C}^n$ chegaralangan soha berilgan bo'lsin. $u\in sh_m(D)$ funksiya D sohada dominantlik prinsipini qanoatlantirsa, ya'ni

$$\forall v\in sh_m(D):\quad \varliminf_{z\to\partial D}\left(u(z)-v(z)\right)\ge 0$$

ekanligidan D sohaning ixtiyoriy nuqtasida $u(z)\ge v(z)$ tengsizlik o'rinli ekanligi kelib chiqsa, u holda u funksiya D sohada *maksimal* deyiladi.

Endi vaznli (m,ψ) -subgarmonik o'lchovning $D\setminus K$ sohada maksimal ekanligi haqidagi teoremani keltiramiz.

Teorema 3.2.2. *Aytaylik, $D\subset\mathbb{C}^n$ chegaralangan m-regular soha bo'lsin. Agar $K\subset D$ kompakt (m,ψ) -regulyar va $\psi\in C(K)$ bo'lsa, u holda vaznli $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-o'lchov $D\setminus K$ da maksimal bo'ladi, ya'ni*

$$(dd^c\omega_m^*(z,K,D,\psi))^{n-m+1}\wedge\beta^{m-1}=0.$$

Endi chegaralangan va m-regulyar $D\subset\mathbb{C}^n$ sohada, $K\subset D$ kompaktning vaznli (m,ψ)-sig'imi tushunchasini vazn funksiyasi $\psi(z)$ manfiy va uzluksiz bo'lgan holda kiritamiz.

Ta'rif 3.3.2. Ushbu

$$C_m(K,D,\psi)=\inf\left\{\int_D(dd^cu)^{n-m+1}\wedge\beta^{m-1}:u\in sh_m(D)\cap C(D),u|_K\le\psi|_K,\varliminf_{z\to\partial D}u(z)\ge 0\right\}$$

miqdorga K to'plamning D sohaga nisbatan *vaznli* (m,ψ)*-sig'imi* deb ataladi.

Vaznli (m,ψ) -sig'im ham ko'p xossalarga ega bo'lib, biz ularning eng muhimlarini keltiramiz.

Teorema 3.3.4. *Quyidagi munosabatlar o'rinli:*

1. Agar $K\subset D$ kompakt (m,ψ)-regulyar bo'lsa, u holda

$$C_m(K,D,\psi)=\int_K(dd^c\omega_m^*(z,K,D,\psi))^{n-m+1}\wedge\beta^{m-1}.$$

2. Har qanday kompakt $K\subset D$ uchun quyidagi tenglik o'rinli

$$C_m(K,D,\psi)=\inf\{C_m(E,D,\tilde\psi):E\supset K\},$$

bu yerda $\tilde\psi\in C(E)$, $\tilde\psi|_K=\psi|_K$ va E — D sohadagi $(m,\tilde\psi)$-regulyar kompakt.

3. Agar K kompakt (m,ψ)-regulyar bo'lsa, u holda

$$C_m(K,D,\psi)=\sup\{\int_K(dd^cu)^{n-m+1}\wedge\beta^{m-1}:u\in sh_m(D)\cap C(D),\psi|_K\le u|_K,u|_D<0\}.$$

Endi ochiq to'plamning (m,ψ) -sig'imi va ixtiyoriy $E\subset D$ to'plamning (m,ψ)-tashqi sig'imi tushunchasini kiritishga tayyormiz.

Ta'rif 3.3.5. Aytaylik, $U\subset D$ ochiq to'plam bo'lsin. Ushbu

$$C_m(U,D,\psi)=\sup\{C_m(K,D,\psi):K\subset U,\quad K-\text{kompakt}\}$$

miqdor U *ochiq to'plamning* (m,ψ)*-sig'imi* deyiladi.

Ixtiyoriy $E\subset D$ to'plam uchun (m,ψ)-tashqi sig'imni odatdagidek, quyidagi tarzda aniqlaymiz:

$$C_m^*(E,D,\psi)=\inf\{C_m(U,D,\psi):U\supset E,U\subset D\},$$

bu yerda U ochiq to'plam.

$\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig'im va (m,ψ)-tashqi sig'im orasidagi bog'lanishni ifodalovchi quyidagi teoremaga egamiz.

Teorema 3.4.2. *Aytaylik,* $B=B(0,1)$ *markazi koordinata boshida joylashgan birlik shar bo'lsin. Agar* $E\subset B(0,r)\subset\subset B(0,1)$ *bo'lsa, u holda quyidagi tengsizliklar o'rinli:*

$$C_1\cdot C_m^*(E,B,\psi)\le \mathcal{P}_m(E,B,\psi)\le C_2\cdot (C_m^*(E,B,\psi))^{n-m+1},$$

bu yerda $C_1>0$ *va* $C_2>0$ *o'zgarmaslar faqat* r *hamda* ψ *ga bog'liq.*

Yuqoridagi teoremadan quyidagi natijani olamiz.

Natija 3.4.3. (m,ψ) *- tashqi sig'im nolga teng bo'lishi uchun* $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$ *-sig'imning nolga teng bo'lishi zarur va yetarli. Bundan tashqari,* (m,ψ)*- tashqi sig'im* m*-polyar to'plamlardagina nolga teng bo'ladi va aksincha.*

XULOSA

Ushbu PhD dissertatsiya m-subgarmonik o'lchovlarning vaznli holatini o'rganishga bag'ishlangan. Biz vaznli (m,ψ)-subgarmonik o'lchov tushunchasini kiritdik va uning potensial xossalarini o'rgandik. Bundan tashqari, $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-sig'im va (m,ψ)-sig'im tushunchalariga ta'rif berilib, ularning muhim xossalari isbotlandi.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

— agar $K\subset D$ kompakt (m,ψ)-regulyar va $\psi\in C(K)$ bo'lsa, u holda vaznli (m,ψ)-subgarmonik o'lchov $\omega_m^*(z,K,D,\psi)$ uzluksizdir;

— agar $\psi\in C(K)$ bo'lsa, u holda lokal m-regulyarlik va lokal (m,ψ)-regulyarlik ekvivalentdir;

— agar $\psi\in C(K)$ va u qat'iy m-subgarmonik funksiya sifatida K ning biror atrofiga davom etsa, (m,ψ)-regulyarlik va lokal (m,ψ)-regulyarlik ekvivalentdir;

— agar $\omega^*(z,K,D,\psi)$ funksiya K kompaktga nisbatan Gyolder uzluksiz va ψ funksiya K kompakda Gyolder uzluksiz bo'lsa, u holda $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-o'lchov D sohada Gyolder uzluksiz bo'ladi;

— yuqoridagiga o'xshash tarzda, agar K kompaktning vaznli m-Green funksiyasi K kompaktga nisbatan Gyolder uzluksiz va ψ funksiya K kompakda Gyolder uzluksiz bo'lsa, u holda K kompaktning vaznli m-Green funksiyasi hamma yerda Gyolder uzluksiz bo'ladi;

— agar $K\subset D$ kompakt (m,ψ)-regulyar va $\psi\in C(K)$ bo'lsa, u holda $\mathcal{P}_{(m,\psi)}$-o'lchov $D\setminus K$ da maksimal bo'ladi, ya'ni

$$(dd^c\omega_m^*(z,K,D,\psi))^{n-m+1}\wedge\beta^{m-1}=0;$$

— agar $K\subset D$ kompakt (m,ψ)-regulyar bo‘lsa, u holda

$$C_m(K,D,\psi)=\int_K(dd^c\omega_m^*(z,K,D,\psi))^{n-m+1}\wedge\beta^{m-1};$$

— har qanday kompakt $K\subset D$ uchun quyidagi tenglik o‘rinli:

$$C_m(K,D,\psi,\delta)=\inf\{C_m(E,D,\tilde{\psi}):E\supset K\},$$

bu yerda $\tilde{\psi}\in C(E)$, $\tilde{\psi}|_K=\psi|_K$ va E kompakt $(m,\tilde{\psi})$-regulyar;

— agar $E\subset B(0,r)\subset\subset B(0,1)$ bo‘lsa, $B=B(0,1)$ —birlik shar, u holda

$$C_1\cdot C_m^*(E,B,\psi)\le\mathcal{P}_m(E,B,\psi)\le C_2\cdot(C_m^*(E,B,\psi))^{n-m+1},$$

bu yerda $C_1>0$ va $C_2>0$ o‘zgarmaslar faqat r hamda ψ ga bog‘liq.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

КУЛДАШЕВ КОБИЛЖОН КУЛДАШЕВИЧ

ВЕСОВЫЕ m-СУБГАРМОНИЧЕСКИЕ МЕРЫ

01.01.01 – Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент — 2025 г

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером № B2025.3.PhD/FM1345.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском — резюме) на веб-сайте ученого совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и в образовательной информационной сети «ZiyoNet» (http://www.ziyonet.uz/).

Научный руководитель:	**Рахимов Карим Хошимович** доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	**Рахимов Абдугафур Абдумажидович** доктор физико-математических наук, профессор
	Шарипов Расулбек Ахмедович Кандидат физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Туринский политехнический университет в городе Ташкенте**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета № DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека в 2026 году «8» января в 11⁰⁰ часов. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: +998-71-227-12-24, факс: +998-71-246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (зарегистрирована под № 251). Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: +998-71-246-02-24.

Автореферат диссертации распространен «29» декабря 2025 года.
(протокол реестра № 2 от «29» декабря 2025 года)

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI MIRZO ... NOMIDAGI O'ZBEKISTON

О. С. Зикиров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

Р. М. Жураев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.ф.-м.н. (PhD)

Р. Н. Ганиходжаев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (автореферат диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом научном сообществе теория плюрипотенциалов стремительно развивается как одно из наиболее важных и актуальных направлений математики. Действительно, в современной математике, в частности в области многомерных комплексных динамических систем, многие научные исследования часто сводятся к задачам теории плюрипотенциалов. Эта область имеет значение не только для чистой математики, но и для многих прикладных наук, таких как электростатика, квантовая механика, гидродинамика и другие. Операторы Лапласа и Монже–Ампера, которые являются объектами исследования теорий потенциалов и плюрипотенциалов, а также субгармонические и плурисубгармонические функции, анализируемые посредством указанных операторов, равно как связанные с ними понятия меры и ёмкости, всесторонне изучаются и представляют собой одни из актуальных проблем современной математики.

В последние годы обобщённые формы операторов Лапласа и Монжа–Ампера, а именно комплексный оператор Гессиан, а также определяемые с его помощью m-субгармонические функции и понятия $\mathcal{P}_m$-меры и m-ёмкости, введённые в классе m-субгармонических функций, стали основными и современными объектами теории плюрипотенциалов. В теории m-субгармонических функций изучение весовой m-субгармонических мер и свойств соответствующих ёмкостей, а также свойств регулярности связанных с ними компактных множеств — в частности, Гёльдеровой регулярности и поведения на границе — считается одной из важных задач математической физики, теории функций нескольких комплексных переменных и комплексных динамических систем. Действительно, если применить весовую m-субгармоническую меру относительно области $D \supset K$ к комплексному оператору Гессиан компактного множества $K \subset \mathbb{C}^n$, мы получим меру, носитель которой расположен на этом компакте. Такие меры играют существенную роль в комплексных динамических системах.

В нашей стране, особенно в последние годы, уделяется особое внимание развитию фундаментальных наук, в частности теории комплексного анализа и потенциалов. Исследования, посвящённые теории m-субгармонических функций, начатые школой академика А. Садуллаева, в настоящее время получили международное признание. Расширение масштабов научных исследований по приоритетным направлениям дисциплин «Теория функций вещественной переменной и Теория функций комплексной переменной» на уровне международных стандартов, повышение их результативности и практической значимости определены как важные задачи и основные направления деятельности математической науки [1]. С этой точки зрения

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года №292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан».

изучение основных свойств весовых m-субгармонических мер и ёмкостей, а также выявление новых областей их применения представляет собой значимую теоретическую и практическую задачу.

Проведённые в данной диссертационной работе исследования в определённой степени служат решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан № PF-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановлении № PQ-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управлению и финансированию научно-исследовательских работ», а также Постановлении № PQ-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» и других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением IV науки и технологий Республики Узбекистан: «Математика, механика и информатика».

